

MAKTABGACHA YOSHDA BOLALARDA PREDMETLARNING O'LCHAMINI IDROK QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bozorova Saodat Oltiboyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti

532-21 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonining asosiy bog'ini hisoblangan maktabgacha yoshdagi bolalarda predmetlarning o'lchamini idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari, bolalar idrokini ijodiy o'yinlar orqali rivojlantirishning psixologik jihatlari yoritib berilgan. Ijodiy oyinlarning ko'rinishlari, ularning bolalar tomonidan qabul qilinishi va bola idrokini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, idrok, ijodiy oyin, diqqat, sezgi, sahna o'yinlari, qurishyasash, soda va murakkab idrok, suv va qum oyinlari, struktura, predmet, fazo tushunchasi.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yosh bola rivojlanishining eng qulay davri hisoblanadi. Ayniqsa bola psixologiyasida ko'plab o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Buni bolaning kognitiv rivojlanishida kuzatish mumkin. Mukammal, sog'lom sezgilar bilan tug'ilgan chaqaloqda idrok etishning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlaydi. Keyingi rivojlanish bosqichi yoshma-yosh ulg'aygani sari namoyon bo'lib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bola idroki sodda ko'rinishga ega bo'lib, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalar va predmetlarni tushunishi, o'zlashtirishi asosiy faoliyati bo'lgan o'yinlar asosida yuzaga keladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o'zgarib turadi.

O'yin – maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida o'quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa, maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin nazariyasining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

O'yinning bola hayoti va tarbiyasidagi o'rni.

O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

<https://conferencea.org>

O‘yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo‘naltirilgan jarayondir. U o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, yo‘nalish va mazmuniga ko‘ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O‘yin, bu bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari natijaning mavjudligi uning o‘ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o‘ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta‘sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi.¹

Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va xodisalarning kishi ongida butunligicha aks etishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan xolda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi) va anglashilganligidir.²

Predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshqarishda alohida rol o‘ynaydi. Biz narsalarga ularning ko‘rinishiga qarab emas balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq xolda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab ham baholaymiz. Predmetlilik pertsektiv jarayonlarning o‘zini ya‘ni idrok jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham rol o‘ynaydi.

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitliligidadir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o‘laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantliligina tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo‘lsa shundayligicha ob'ektiv ravishda bilishga imkon beradi.

Shu jumladan maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda predmetlarning o‘lchamlarini idrok qilishda biz ularga harakatli o‘yinlar , texnologik metodlar orqali predmetlarning o‘lcham va shakillarini idrok qilishlari uchun imkoniyat yaratmog‘imiz darkor.

Bola o‘z o‘yinlarida o‘zlashtirgan hatti-harakatlarni taqlid asosida namoyish qiladi. O‘yinning turlari ko‘p. O‘yin turlari ichida ijodiy o‘yin turi bola uchun qulay va qiziqarlidir. Ijodiy o‘yinlar mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.Y. Samorukova va boshqalarning fikricha, ijodiy–rolli o‘yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang hatti-harakatlari, ko‘rinishlari – bolalar o‘yinlarining asosiy mazmuni bo‘lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir. Ijodiy o‘yin faoliyatida asosiy

¹ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7

² <http://uz.denemetr.com/docs/134/index-4959.html>

<https://conferencea.org>

komponent bo‘lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o‘z ichiga oladi. Ijodiy o‘yinlar o‘z mazmun va mohiyatiga ko‘ra jamoa o‘yini bo‘lib hisoblansada, yakka holda uynalmaydi, degan fikrni keltirib chikarmasligi kerak. Ijodiy o‘yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy, fiziologik va psixologik rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Ijodiy o‘yin turlaridan biri bu - sahnalashtirish o‘yinlaridir. Sahnalashtirish o‘yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga bola idrokini rivojlantiradi.

Sahna o‘yinida rol ijro etayotgan bola o‘z qahramonining ijobiy va salbiy xususiyatlarini tushunadi, o‘zlashtiradi. Sahnalashtirish o‘yinlarida bolalar o‘yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak kahramonlarining ichki hayotiga bevositaaloqador bo‘lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o‘zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning voqeliklarni idrok etishi va tushunchalar hosil qilishi, nutq faolligi, lug‘at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaqlar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, kizikishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi. Sahnalashtirish o‘yinlari qizikarli o‘tishi va uzok vakt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi ham muhim hisoblanadi. Kattalar o‘yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O‘yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag‘batlantirilib, kelgusida kaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar. Tayyorgarlik jarayoni ham bolalarda barcha ishtirokchilarni idrok etish, barchani tanib olish, jamoa bo‘lib ko‘maklashish, topshiriqlarni birgalikda bajarish, o‘z qahramonidan tashqari boshqa qahramonlarni ham o‘rganish imkrnini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, demak ijodiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. Buning uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

Bolalar bilan tez-tez ijodiy o‘yinlarni tashkil qilish;

Ijodiy uyinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish;

Bola bilan hamkorlikda o‘ynash va so‘ralgan savollarga javob berish;

Bolani kuzatuvchan bo‘lishga va o‘rtoqlari fikrini eshita olishga o‘rgatish;

O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslikka o‘rgatish;

O‘yin qoidasini tushuntirish va bajarishga o‘rgatish;

O‘z xatosini tan olishni o‘rgatish lozim;

<https://conferencea.org>

Bolaning qiziqishlarini bilish;

Bolani fikrlarini hurmat qilish.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilgan holda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda predmetlarning o'Ichamlarini idrok qilish qobilyatini yanada oshirishingiz mumkin. Shu jumladan bunda nafaqat ota-ona balki tarbiyachilar bilan ham hamkorlikda ish olib borilsa maqsadga muvoffiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" darslik T.: "Fan va texnologiya", 2012
2. Nishonova Z.T, Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" 2005
3. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni.
4. Хидиров, X. Н. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.
5. Хидиров, X. Н. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой ученый, (14), 262-263.
6. Хидиров, X. Н. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
7. Marufova, Z. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ПОСРЕДСТВОМ ЗООНИМОВ ВЫРАЖЕНИЯ ВОСТОЧНОЙ КРАСОТЫ. Theoretical & Applied Science, (7), 13-16.
8. Rasulova, A. (2022). THE STUDING BARRIER CONNECTION IN THE WORLD LINGUISTICS. Thematics Journal of Education, 7(2).
9. U. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., «Fan», 2005.
10. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
11. Pedagogika fanidan izohli lug'at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To'raqulov, O. Hasanboyeva, N. Usmonov). T., «Fan va texnologiyalar», 2009.
12. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi. T., « O'zbekiston», 2010.
13. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. (O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., «Fan va texnologiyalar», 2010.
14. O. Hasanboyeva. Barkamol avlod ma'naviyati. T., « O'zbekiston», 2010.
15. «Bolajon» tayanch dasturi. T., 2010.